

tegishli cherkovlar, ibodatxonalar mavjud. Bugungi kunda, Samarqandga tashrif buyurgan sayyohlar shaharni piyoda sayr qilib buni o'z ko'zlari bilan ko'rib hayratlanishmoqda va albatta bu tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iriskulov O.J. (2019). XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqandda shahrida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar, Avtoreferat. 55-b.
2. "Samarqand viloyati ma'lumotnomasi", (1905). Samarqand viloyat statistika qo'mitasi nashri. "Hamkorlik" matbaa sahifasi 98-b.
3. Vavilova T. (2015). "Samarqand axborotnomasi" 87-son. "Maxsus bino". 79-b.
4. Abduvaxidov D.N. (2024). "Samarqand shahrida joylashgan Avliyo Aleksi sobori qurilishi tarixi", Qo'qon DPI xabarlar, №4. 77-80. <https://www.journal.kspi.uz>
5. Galak A., Galina Y. (2015). Samarqand Pokrovskiy cherkovi, "Vostok Svishe" jurnali, №2, 33-42.
<https://pravoslavie.uz/archdiocese/departement diocese/ePress/Easter/Archive/index.php>
6. Dorofeyev R., (2014). Samarqand Alviyo Georgiy cherkovi, "Vostok Svishe" jurnali, №1-2, 9-19.
<https://pravoslavie.uz/archdiocese/departement diocese/ePress/Easter/Archive/index.php>
7. Samarqand ibodatxonalari.
<https://www.orexca.com/rus/uzbekistan/samarkand.html>
8. Galak A. Toshkentdagi birinchi ibodatxonadan Samarqand cherkovigacha.
<https://sv.zarnews.uz/post/ot-pervoy-kplic-v-tashkente-do-samarkandskogo-kostela>
9. Galak A. Samarqanddagi Aleksievskiy sobori: bitta ibodatxona taqdiri
<https://sv.zarnews.uz/post/aleksievskiysoborvsamarkandesudbaodnogoxrama>
10. Saakov G. Samarqand – "buyuk xonlar poytaxti".
<https://sv.zarnews.uz/post/samarkand-stolica-velikix-xanov>

TURISTIK INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISHDA ZIYORAT TURIZMI RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH: XORIJIY TAJRIBA VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti 2-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: zaynutdinovamuslimakhon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada turistik infratuzilmani rivojlantirish jarayonida ziyorat turizmi resurslaridan samarali foydalanish masalasi yoritiladi. Ziyorat turizmi faqat diniy sayohatlar bilan cheklanib qolmay, balki turistik infratuzilmaning jadal rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Maqolada xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari, xususan, Indoneziya va Malayziya kabi mamlakatlarda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'llanilgan strategiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar, jumladan, raqamli xizmatlar, aqlli infratuzilma, ekologik barqarorlik tamoyillari va zamonaviy transport tizimlarining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekistonda ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari, xorijiy tajribani moslashtirish va milliy turizm sektorini modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, turistik infratuzilma, xorijiy tajriba, innovatsion yondashuvlar, smart turizm, ekologik barqarorlik, raqamli xizmatlar, transport tizimi, shaharsozlik.

Kirish: Ziyorat turizmi bugungi kunda jahon miqyosida eng jadal rivojlanayotgan turizm turlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy o'sish va turizm industriyasini rivojlantirish, balki madaniy merosni asrab-avaylash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishda ham muhim rol o'ynaydi.


Bugungi kunda O'zbekiston hukumati tomonidan ziyorat turizmini rivojlantirishga

qaratilgan qator islohotlar olib borilmoqda. Xususan, turizm infratuzilmasini yaxshilash, zamonaviy mehmonxona va transport xizmatlarini yo'lga qo'yish, xalqaro tajribalarni o'rganish va ulardan samarali foydalanish kabi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, mamlakat ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, xalqaro bozorda turistik brend sifatida tanilish hamda ekologik barqarorlik tamoyillariga amal qilish kabi dolzarb masalalarni hal etishi zarur.

Mamlakatimizda ziyorat turizmi rivojini yangi bosqichga olib chiqish uchun xorijiy tajribalarni o'rganish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash muhimdir. Dunyo miqyosida Indoneziya, Malayziya kabi davlatlar ziyorat turizmi sohasida katta yutuqlarga erishgan. Ushbu davlatlar tajribasini o'rganish orqali O'zbekistonda ham ziyorat turizmini jadal rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Asosiy qism: Jahon iqtisodiyotida turizm sohasi eng daromadli tarmoqlardan biri sanaladi. Pandemiya oldingi davrda mehmondo'stlik sanoati to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ravishda dunyodagi ish o'rinlarining 10,5 % ini (334 million) hamda jahon yalpi ichki mahsulotining 10,4 % ini (10,3 trillion AQSh dollari) tashkil etgan. Shuningdek, xalqaro sayyohlar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar 1,91 trillion AQSh dollariga yetgan (<https://wtcc.org/research/economic-impact>). Albatta, pandemiya davrida turizm sohasi ham boshqa iqtisodiy tarmoqlar qatori jiddiy cheklovlar natijasida inqirozga uchradi. Biroq, sanitariya-epidemiologik cheklovlarning bosqichma-bosqich yumshatilishi bilan sektor asta-sekin tiklanishni boshladi.

1-rasmda 2010-2023-yillar davomida xalqaro turistik tashriflar sonining o'zgarishini aks ettiradi. 2010-yildan 2019-yilgacha xalqaro sayohatlar soni doimiy o'sib, 927,68 milliondan 1462,27 millionga yetgan. Bu davr turizm sanoati rivojlangan, infratuzilma yaxshilangan va global miqyosda sayohatlarga talab oshgan yillar sifatida ko'rinadi. Biroq, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli turizm sohasida keskin pasayish kuzatilgan bo'lib, tashriflar soni 406,96 millionga tushib, deyarli 72% kamaygan. 2021-yilda cheklovlar yumshatilishi tufayli tiklanish jarayoni boshlanib, tashriflar soni 457,51 millionga yetgan. 2022-yilda o'sish sur'ati tezlashib, 960,19 millionga yetgan bo'lsa, 2023-yilda sayohatlar soni 1285,66 millionga yetib, pandemiya oldingi ko'rsatkichga yaqinlashgan. Shunga qaramay, 2019-yildagi daraja hali to'liq tiklanmagan bo'lib, 12% ga pastligicha qolmoqda (<https://www.unwto.org/tourism-data/global-and-regional-tourism-performance>). 2024-yilda xalqaro turistik tashriflar soni sezilarli darajada oshib, pandemiya oldingi darajaga yaqinlashdi.



1-rasm. 2010-2023-yillar kesimida xalqaro turistik tashriflar soni (million kishi)

Hozirda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va xizmatlar sifatini oshirish orqali sayyohlarni jalb qilish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish muhim masalalardan biri sifatida ko'rilmogda. Buning uchun avvalo mavjud resurslar tahlil qilinib, turizmning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va ularni rivojlantirish hamda targ'ib qilish zarur. Mamlakatda mavjud turistik resurslar turiga qarab tasniflanadi, shuningdek, infratuzilma va ishchi kuchi imkoniyatlari ham inobatga olinadi. Shu asosda O'zbekistonda qishloq turizmi, joyloo turizmi, gastronomik turizm, ekoturizm, ziyorat turizmi va boshqa yo'nalishlarni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud.

O'zbekiston ziyorat turizmini rivojlantirish uchun yetarlicha salohiyatga ega. Respublika hududida 8,4 mingga yaqin madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlarda joylashgan (<https://madaniymeros.uz/>). Respublikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev 16-20-oktabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi ochilish marosimidagi nutqida ayni paytda ziyorat turizmi dasturi doirasida sayohatga keluvchilar sonini hozirgidan uch barobar ko'proqqa oshirish mo'ljallayotganini ta'kidladi (<https://president.uz/oz/lists/view/6764>). Shu sababli, ziyorat turizmi infratuzilmasini boshqarish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Ziyorat turizmi – diniy yoki ma'naviy e'tiqod bilan bog'liq muqaddas joylarga tashrif buyurishdan iborat bo'lib, odatda ibodat qilish, tarixiy-madaniy merosni o'rganish, diniy an'analarga rioya qilish kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi. Ziyorat turizmi ko'p hollarda xalqaro turizmning ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim hisoblanadi.


Ziyorat turizmi va uning iqtisodiy ahamiyatiga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Butunjahon sayyolik tashkiloti – UN Tourism – ziyorat turizmiga quyidagicha ta'rif beradi: "Ziyorat turizmi diniy yoki ma'naviy motivatsiya asosida amalga oshiriladigan sayohat turi bo'lib, u ma'lum muqaddas joylarga tashrif buyurish, diniy marosimlarda ishtirok etish va e'tiqod bilan bog'liq faoliyatlarni o'z ichiga oladi". Ayrim manbalarda ziyorat turizmi sayohatchining diniy yoki ma'naviy sabablarga ko'ra muqaddas joylarga borishi natijasida vujudga keladigan turizm turi (Norman Douglas (2001)) kabi ta'riflansa, boshqa adabiyotlarda ziyorat turizmi ibodat, diniy tajriba yoki tarixiy diniy meros bilan bog'liq turistik harakatlarning majmuasi (Collins-Kreiner (2010)) kabi ifodalaniladi.

Ziyorat turizmi turistik infratuzilmani rivojlantirishning muhim omillaridan biri bo'lib, u mehmonxona, transport, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengayishiga turtki beradi. Ziyoratchilarning barqaror oqimi tufayli yangi turar joylar, zamonaviy yo'l-transport tizimlari, restoranlar va boshqa xizmat ko'rsatish maskanlari barpo etiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, ekologik barqaror infratuzilma va aqlli turizm yechimlari joriy qilinadi. Natijada, shaharsozlik jarayonlari tezlashib, mamlakatning iqtisodiy va madaniy salohiyati ortadi, turizm sohasi esa yanada jadal rivojlanadi.

Turistik infratuzilmani rivojlantirishda ziyorat turizmi resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha dunyo tajribasida bir qancha ilg'or yondashuvlar mavjud. Xususan, Indoneziya va Malayziya kabi mamlakatlar ziyorat turizmi infratuzilmasini kengaytirish va modernizatsiya qilish orqali ushbu yo'nalishni muvaffaqiyatli rivojlantirmoqda.

Indoneziya Osiyoning janubiy-sharqiy qismida joylashgan, hududi jihatidan dunyodagi eng katta mamlakatlar qatorida 14-o'rinni egallaydi (1904569 kv.km), poytaxti – Jakarta. 2024-yilda holisi soni 279,7 milliondan oshdi, aholi soni bo'yicha dunyoning top-10 mamlakatlar qatoriga kiradi (<https://datacommons.org>). Turizm sanoati mamlakat iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. Masalan, 2016-yilda Indoneziyada turizm sohasining YaIM ga qo'shgan ulushi 4,65% ni tashkil etgan, 2017-yilda bu ko'rsatkich 4,76%, 2018-yilda 4,91% va 2019-yilda 4,97% ga yetgan (2-rasm). Koronavirus pandemiyasi sababli 2020-yilda turizm inqirozi yuz berdi va bu yili turizmning YaIM ga qo'shgan hissasi 2,23% ga tushib ketdi, 2021-yilda esa 2,3% ni tashkil etdi. 2023-yil yakuniga kelib, turizm industriyasining iqtisodiyotga qo'shgan hissasi 4,1% ga yetib, pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonining kuchayganligini ko'rsatdi

(<https://www.ceicdata.com/en/indicator/indonesia/visitor-arrivals>).



2-rasm. 2010-2019-yillar kesimida Indoneziyaga tashrif buyurgan turistlar soni (million nafar)

Mamlakatda turizm sektorini davlat tomonidan tartibga soluvchi asosiy tashkilot – Turizm va ijodiy iqtisodiyot vazirligi (Ministry of Tourism and Creative Ecobomy) hisoblanadi. 2019-yilda Turizm va Ijodiy iqtisodiyot vazirliklarining faoliyatini birlashtirish natijasida u o'z ishini davom ettirib, turizm sektorini ijodiy iqtisodiyot bilan uyg'unlashtirish va diversifikatsiya qilishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirmoqda. Vazirlik faoliyati uchun katta mablag'lar ajratiladi: 2020-yilda byudjeti 3,6 trillion, 2021-yilda 3,45 trillion va 2022-yilda 3,8 trillion Indoneziya rupiyasini tashkil etgan. Hozirgi kunda vazirlik turizm sektorining moslashuvchan va barqaror rivojlanishini ta'minlashni maqsad qilib, 2023-2024-yillarda qayta tiklanish siyosatiga e'tibor qaratmoqda. Shuningdek, 2022-yilda Milliy rivojlanishni rejalashtirish vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan institutsional asoslar turizm sektorining rivojlanishida asosiy yo'nalish sifatida hosildorlik, inklyuzivlik va barqarorlikni belgilab berdi. Har bir yo'nalishda vazirlik tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan siyosiy ko'rsatmalar mavjud bo'lib, ular turizmni yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Indoneziyada turizm sektorini rivojlantirishning institutsional asoslari quyidagilardan iborat:

1. Hosildorlik: turistik ta'minot kompleksini takomillashtirish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, turizm bozorini kengaytirish, samarali reklamani qo'llab-quvvatlash, turistik infratuzilmani rivojlantirish, turistik jozibadorlikni oshirish, turistik samaradorlikni oshirish, turizm sohasidagi startap loyihalarni ko'paytirish.
2. Inklyuzivlik: turistik qishloq va provinsiyalardagi sharoitni takomillashtirish, turistik infratuzilmani jonlantirish va milliy mahsulotlardan foydalanishni kengaytirish.
3. Barqarorlik: turizmda Sog'liqni saqlash protokolini joriy etish va xizmat ko'rsatish standartini kengaytirish.

Indoneziya milliy turizm maqsadlari iqtisodiy, atrof-muhit va milliy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan (3-rasm).



3-rasm. Indoneziya milliy turizm maqsadlari

Indoneziyadagi ziyorat turizmi yo'nalishi milliy iqtisodiyotning alohida sektori sifatida yaxshi tashkil etilgan va soha yaxshi iqtisodiy salohiyatga ega. Ziyorat turizmi aholining faqatgina bir bo'lagiga yo'naltirilmagan, ya'ni barchani qamrab oladi. Mamlakatdagi ziyorat turizmining asosi – turizmni boshqarishda shariat tamoyillariga rioya qilish, xizmat ko'rsatishda barcha turistlar va atrof-muhitga e'tiborli bo'lishdan iborat.

Malayziya janubiy-sharqiy Osiyoda joylashgan bo'lib, aholisi qariyb 34 milliondan oshiq. Hukumat tizimi federal konstitutsiyaviy monarxiya, o'n uchta shtatdan iborat, poytaxti – Kuala-Lumpur, federal hukumat qarorgohi esa Putrajayada joylashgan. Malayziyaning har bir shtatida turistlar tashrifi uchun mashhur ziyoratgohlar mavjud. Malayziyada turizm faoliyatini nazorat qilish, tartibga solish va takomillashtirish maqsadida Turizm vazirligi, Malayziya islom taraqqiyoti departamenti hamda "Islom turizmi markazi" nomli turizm boshqarmasi tashkil etilgan. Islom turizm markazi 2009-yilda tashkil qilingan bo'lib, Malayziyaning turizm, san'at va madaniyat vazirligining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

Malayziya tomonidan taklif etiladigan ziyorat turlari sayohatchilarning turli istaklariga moslashuvchan tarzda tashkil etiladi. Bu yo'nalish nafaqat diniy tajriba va madaniy merosni o'rganishga qaratilgan, balki xarid qilish, davolanish va sport bilan shug'ullanish kabi qo'shimcha imkoniyatlarni ham o'z ichiga oladi. Muhimi shundaki, ushbu tur ziyorat turlari qat'iy me'yorlarga rioya qilinib, giyohvandlik, spirtli ichimliklar yoki shaxs va mulkka zarar yetkazadigan har qanday xatti-harakatlardan butunlay yiroq bo'ladi.

Malayziya hududida ziyoratchilar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan: masjidlar, muzeylar, universitetlar, islom maktablari, tematik parklar va turli diniy obidalar mavjud. Bugungi kunda mamlakatda 6800 dan ortiq masjid va 13000 ga yaqin madrasalar va namozxonalar mavjudligi bu ziyorat turlarining boy va xilma-xil takliflarini yanada ko'rsatib beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ziyorat turizmi turistik infratuzilmaning rivojlanishiga quyidagi jihatlar orqali katta ta'sir ko'rsatishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Ziyorat turizmining turistik infratuzilma rivojlanishiga ta'siri

Ta'sir doirasi	Ta'siri
Mehmonxona va turar joy infratuzilmasini rivojlantirish	1. Ommaviy ziyoratlar uchun mehmonxonalar, ostellar va ijaraga beriladigan uylar soni ortadi. 2. Xalqaro ziyoratchilar talablariga mos sharoitlar yaratiladi (halol ovqatlanish, ibodat xonalari, zamonaviy qulayliklar). 3. Barqaror turizm tamoyillariga asoslangan ekologik mehmonxonalar paydo bo'ladi.
Transport va logistika tizimini rivojlantirish	1. Ziyoratchilar oqimi katta bo'lgani uchun emir yo'l, havo transporti va jamoat transporti infratuzilmasi yaxshilanadi. 2. Maxsus ziyoratchilar uchun transport o'nalishlari, avtobus tizimlari, elektr transport vositalari joriy etiladi. 3. Aeroportlar, vokzallar va avtovokzallarni modernizatsiya qilish zarurati tug'iladi.
Savdo va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish	1. Ziyoratchilar uchun restoranlar, kafe va yirik savdo markazlari tashkil etiladi. 2. Halol sertifikatlangan mahsulotlar va milliy suvenirler savdosi rivojlanadi. 3. Bank xizmatlari, valyuta ayirboshlash shoxobchalari, tibbiy xizmatlar kengayadi.
Ekologik barqarorlik va urbanizatsiya	1. Ziyorat manzillari atrofida yashil hududlar, dam olish maskanlari barpo etiladi. 2. Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan "rashil" infratuzilma loyihalari amalga oshiriladi. 3. Ziyoratchilar oqimini samarali boshqarish ali shaharlar ortiqcha yuklanishining oldi olinadi.
Madaniy merosni asrash va targ'ib qilish	1. Ziyorat turizmi orqali tarixiy obidalar ta'mirlanib, ularning jozibadorligi oshiriladi. 2. Muzeylar, madaniy markazlar va tadqiqot institutlari tashkil etiladi. 3. Turistik obyektlar atrofida axborot markazlari va zamonaviy yo'riqnomalar joriy etiladi.

Ziyorat turizmi turistik infratuzilmaning barcha jabhalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uni rivojlantirish orqali mehmonxona sektori, transport tizimi, savdo va xizmat ko'rsatish sohalari, raqamli texnologiyalar, ekologik barqarorlik va madaniy merosni asrash kabi sohalar yuksaladi. O'zbekistonda Samarqand, Buxoro, Termiz va Toshkent kabi shaharlarda ziyorat turizmi infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali xalqaro miqyosdagi sayyohlik markazlariga aylanish imkoniyati mavjud.

Xulosa: Ziyorat turizmi madaniy merosni saqlash va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. O'zbekiston boy tarixiy-madaniy yodgorliklari, diniy maskanlari va ziyoratgohlariga ega bo'lib, ushbu salohiyatni yanada rivojlantirish orqali turizm sohasida jahon bozorida yuqori mavqega erishish mumkin. Dunyo tajribasidan ko'rinib turibdiki, Indoneziya va Malayziya kabi mamlakatlar ziyorat turizmini rivojlantirishda davlat siyosati, zamonaviy texnologiyalar va biznesning faol ishtirokiga katta e'tibor qaratgan. Ularning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ziyoratchilar uchun qulay infratuzilma yaratish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, marketing strategiyalarini samarali amalga oshirish turizmni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda turistik infratuzilmani rivojlantirishda ziyorat turizmi resurslaridan yanada foydalanish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya etish mumkin:

1. Raqamli texnologiyalarni joriy etish – Ziyoratchilar uchun mobil ilovalar, onlayn bron qilish tizimlari, virtual gid xizmatlari kabi innovatsion echimlarni tatbiq etish lozim.
 2. Ziyorat turizmi infratuzilmasini yaxshilash – Mehmonxona, transport va yo'nalishlar sifatini oshirish, ziyoratchilar uchun qulay logistika tizimlarini rivojlantirish zarur.
 3. Xalqaro tajribalarni o'rganish va qo'llash – Malayziya va Indoneziyaning davlat-xususiy sheriklik modeli, sodiqlik dasturlari va turizmni rag'batlantirish mexanizmlarini O'zbekistonda ham tatbiq etish mumkin.
 4. Turistik brendni shakllantirish – O'zbekistonni xalqaro miqyosda ziyorat turizmining yetakchi markazlaridan biri sifatida targ'ib qilish uchun samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish lozim.
 5. Ekologik va barqaror turizm tamoyillariga amal qilish – Tabiiy va madaniy merosni asrab-avaylash bilan birga, ziyoratchilarga qulay sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.
- Ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuv hamda xalqaro tajribadan oqilona foydalanish natijasida O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyodagi, balki jahon miqyosidagi yetakchi ziyorat turizmi markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Battour, Mohamed, and Mohd Nazari Ismail. "Halal tourism: Concepts, practises, challenges and future." *Tourism management perspectives* 19 (2016): 150-154.
2. Samori, Zakiah, Nor Zafir Md Salleh, and Mohammad Mahyuddin Khalid. "Current trends on Halal tourism: Cases on selected Asian countries." *Tourism Management Perspectives* 19 (2016): 131-136.
3. Junaidi, Junaidi. "Halal-friendly tourism and factors influencing halal tourism." *Management Science Letters* 10.8 (2020): 1755-1762.
4. Александрова, А. Ю. "Халяльный туризм: сущность, факторы и современные тенденции развития в мире." *ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ВНУТРЕННЕГО И МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА В РОССИИ* (2018): 3-9.
5. Уманская, Марина Викторовна, and Зайнаб Идихуджаевна Давлатова. "ХАЛЯЛЬНЫЙ ТУРИЗМ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ." (2021): 106-113.
6. Asadov, Nosirjon. "MUSULMON BO 'LMAGAN MAMLAKATLARDA HALOL TURIZM STANDARTLARINI JORIY ETISH TAJRIBASI." *Talqin va tadqiqotlar* 1.1 (2023).
7. Barotov, Umidjon. "HALOL TURIZMDA YETAKCHI ONLINE TURISTIK AGENTLIK LARI FAOLIYATI TAHLILI VA ULARNING YURTIMIZDAGI ISTIQBOLI." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 46.46 (2024).
8. Turdiyeva, Umidaxon. "HALOL MAHSULOT VA XIZMATLARNI BAXOLASHNING TURIZM SANOATIGA TA'SIRI." *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения* 1.23 (2022): 52-55.
9. <https://www.ceicdata.com/en/indicator/indonesia/visitor-arrivals>
10. <https://www.statista.com/statistics/1150613/indonesia-tourism-gdp-direct-contribution-share/>
11. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413#-6605156>
12. https://datacommons.org/place/country/IDN?utm_medium=explore&mprop=coun t&popt=Person&hl=en
13. <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/3d55e868-en/index.html?itemId=/content/component/3d55e868-en>
14. Jaelani, Aan. "Halal tourism industry in Indonesia: Potential and prospects." *International Review of management and Marketing* 7.3 (2017): 25-34.
<https://en.tempo.co/read/1734117/indonesia-tops-halal-tourism-in-global-muslim-travel-index-2023>